



№4/2024

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 4 2024-noyabr

**Jurnal 2023-yildan
chop etilmoqda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan
va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan **Pedagogika
fanlari** bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Tahririyat manzili:
170100 Andijon shahri, "Do'stlik"
ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

4/8

Издательство "Fan ziyosi".
Лиц. № 308197041.
Адрес: Тошкент, ул. А.Наваи - 30

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Yu. Isayev- kimyo fanlari doktori (DSc), professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

R. Aliyev- texnika fanlari doktori, professor

A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

D.M. Isroilova - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.K.Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). Professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

F.F. Usmanov- filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Q.Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

T.Parpiyev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.Sh.Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J.Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B.Qoraboev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.T. Mo'ydinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.Sh.Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.M.Rejapova- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

L.S.Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:

O.Karimov,

U.Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

Rasulov B.M., Ergasheva M.A. Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini tarixiy bilimlar asosida takomillashtirishning pedagogik aspektlari	3
Egamberdiyev A.A. Innovatsiya haqidagi ayrim mulohazalar	9
Мохоров Д.А. Антикоррупционное мировоззрение в контексте духовно-нравственного просвещения	12
Мохоров Д.А. Духовно-нравственное просвещение в концепции противодействия коррупции государств – участников содружества независимых государств	17
Parpiyev M.T. Shaxs ma'naviy kamolotida ajdodlar ilmiy merosining o'rni	21
Komilova X.T., Rasulova B.A. Xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati ilg'or xorijiy tajribalar	31
Axmadaliyev X.U. Siyosiy faoliyat turlari	27
Kurbanova M.T. Oila tarbiyasida tarixiy qadriyatlarimiz, ma'naviy- ma'rifiy islohotlarning o'rni	37
Iminov O.N. Falsafiy ta'limda talabalarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash metodikasi	39
Ruziyev N.M. Kulol Mirzabaxrom Abduvaxobov maktabining tarixi va o'ziga xos an'analari	42
Abullayeva N.A. Kashtachilik buyumlarining ijtimoiy-madaniy turmushdagi ahamiyati va tarixi	45
Алимова М.Ш. Жамоатчилик назоратининг ижтимоий-фалсафий моҳияти	51

Aniq va tabiiy fanlar

G'opirov K.G. Kimyo ta'limida steam yondashuvning amaldagi holati	55
Do'monov B.M., Pozilov M.M. Amaliy mazmundagi masala va mashqlar hamda uy tajribalarning ta'lim jarayonidagi o'rni	58
Yunusova L.K., Xaqlulova M.SH., Maxkamova M. A., Tuychiyeva D.S., Xasanova Sh.A. Pestisid topazni mosh o'simligi urug'ining ayrim fiziologik jarayonlariga ta'siri .	62
Mamajanova U.Z., Kodirov M.A., Muydinov N.T. Kimyo fanini o'qitishda ilg'or metodlardan foydalanish	69
Zuxriddinova N.N. Yurtimizda xalq hunarmandchiligining rivojlanishi va bo'lajak texnologik talim o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish	72
Mo'minova M.M. Elektron ta'lim muhitida raqamli mediakompetentlikning afzalliklari	74
Abdurahmonova M.J., Muxsinboyev O.M. O'qituvchi pedagogik kompetentligini oshirishni takomillashtirish (biologiya fani o'qituvchisi misolida)	78
Raxmonov O.M. Virtual texnologiyalar vastasida talabalarning kaspiy dunyoqarashi va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish	80
Raximova D.A. HTML teglari va CSS stillardan foydalanib veb sahifaga login va parol hosil qilishni o'rganish	83
Toxirov A.A., Toxirova M.M. Raketaning tarkibiy qismlari va raketa dvigatellarini ishlash prinsipini zamonaviy tadqiqot usullari va matematik statistika yordamida o'rganish	88

Xalq hunarmandchiligini zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirish yangi imkoniyatlarni ochib beradi:

- 3D modellash va bosib chiqarish: An'anaviy hunarmandchilik buyumlarini 3D modellash va bosib chiqarish, ularni ko'paytirish va ommaviy ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

- Virtual va qo'shimcha haqiqat texnologiyalari: O'quvchilarga virtual va qo'shimcha haqiqat texnologiyalari yordamida hunarmandchilik buyumlarini yaratish jarayonini o'rganish imkoniyatini beradi [5].

- Onlayn platformalar: Hunarmandchilik buyumlarini onlayn platforma orqali sotish, ularni xalqaro bozorga chiqarish va hunarmandlarga o'z mahsulotlarini reklama qilish imkonini beradi.

Yurtimizda xalq hunarmandchiligini saqlab qolish va rivojlantirish, uni yangi avlodga o'tkazish va zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirish milliy madaniyatimizni targ'ib qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish va bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Texnologik ta'lim o'qituvchilariga xalq hunarmandchiligi bilan tanishish va uni ta'lim jarayoniga qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, ularni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish, o'quvchilarni o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga undash kerak.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov O.S., Xolmatov N.X., Yusupov X.Q., To'raqulov A.Q.. O'zbekistonning materiallashgan va noma'teriallashgan madaniy merosini saqlash va rivojlantirishning zamonaviy muammolari. 2021.
2. To'raqulov M.X. "O'zbekiston xalq hunarmandchiligi: tarix va zamonaviylik". 2018.
3. Abdunazarov A.A., Qosimova Z.A., Xudoyberdiyeva N.T. "Hunarmandchilik ta'limi: o'qitish usullari va texnologiyalari" 2022.
4. Xudoyberdiyeva T.A., To'raqulova Sh.X. "Ta'limda innovatsion yondashuvlar: xalq hunarmandchiligini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi" 2021.
5. Yusupova Sh.A. "O'zbekiston xalq hunarmandchiligi: texnologiyalar va bozor" 2019.

UO'K: 378.015.33:004

ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA RAQAMLI MEDIAKOMPETENTLIKNING AFZALLIKLARI

<https://zenodo.org/records/14229439>

Mo'minova Madina Muxiddinovna
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Raqamli mediakompitentlik matn, tasvir, video va interaktiv media kabi turli shakllarda raqamli kontentni samarali boshqarish, baholash va yaratish qobiliyatini anglatadi. Elektron ta'lim muhitida raqamli media kompetensiyasi talabalar va o'qituvchilar uchun o'quv tajribasini oshirishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Ushbu maqola elektron ta'lim muhitida raqamli mediakompitentlikning afzalliklarini o'rganadi, talabalarining faolligini qanday yaxshilashi, shaxsiylashtirilgan o'rganishni osonlashtirishi va tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: talabalarining faolligini oshirish, osonlashtirilgan shaxsiy ta'lim, tanqidiy fikrlash, ijodkorlikni rivojlantirish, onlayn aloqa.

Аннотация. Под цифровой медиаграмотностью понимается способность эффективно управлять, оценивать и создавать цифровой контент в различных формах, включая текст, изображения, видео и интерактивные медиа. В среде электронного обучения компетентность в области цифровых медиа играет решающую роль в улучшении качества обучения для учащихся и преподавателей. В этой статье рассматриваются преимущества цифровой медиаграмотности в среде электронного обучения, уделяя особое внимание тому, как она

может повысить вовлеченность учащихся, облегчить персонализированное обучение и способствовать критическому мышлению и творчеству.

Ключевые слова: *повышение вовлеченности учащихся, облегчение индивидуального обучения, развитие критического мышления, творчества, онлайн общение, сотрудничество.*

Abstract. *Digital media literacy refers to the ability to effectively manage, evaluate, and create digital content in a variety of forms, including text, images, video, and interactive media. In an e-learning environment, digital media competence plays a critical role in enhancing the learning experience for students and teachers. This article explores the benefits of digital media literacy in an e-learning environment, focusing on how it can improve student engagement, facilitate personalized learning, foster critical thinking and creativity.*

Keywords: *Increased student engagement, Facilitated personalized learning, Fostering critical thinking and creativity, online communication and collaboration.*

Raqamli iqtisodiyot, raqamli turizm va raqamli ta'lim sohasida qator mutaxassislar tayyorlash ta'lim dasturiga kiritilgan. Davlat xizmatlarini yo'lga quyib butun aholiga raqamli ta'lim berish, ularda raqamli murojat ko'nikmalarini, telefon va kompyuterlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish yo'lga qo'yilmoqda [1].

Globalashuv jarayonida gazetalar, jurnallar, radio, televideniye, fotografiya, hujjatli va badiiy kino, axborot agentliklari, internet, global tarmoqdagi axborot resurslarining son jihatdan beqiyos o'sishi, sifat jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Kompyuter, faks, "uyali" telefon, parabolik antenna, elektron pochta kabi texnik mo'jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda [2]. Bu borada axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish mediadani ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlaridan keng foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Ta'lim jarayonida media, ya'ni, internet, televideniye, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o'z samarasini ko'rsatmoqda [3].

«Media» atamasi (lotincha – medium, ya'ni vosita, vositachi, usul) turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi [4]. Kompetentlik-ma'lum bir holat xususida to'g'ri mulohaza yuritish imkoniyatini beradigan bilimga ega bo'lish, dalil isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama [5].

Ba'zi olimlar "kompetentlik"ni amaliy va nazariy bilimlar, kognitiv qobiliyatlar, xatti-harakatlar va ish faoliyatini yaxshilash uchun foydalaniladigan qadriyatlarning kombinatsiyasi deb biladilar yoki yaxshi malakaga ega bo'lish, muayyan ro'lni bajarish qobiliyatiga ega bo'lish holatidir. Masalan, boshqaruv kompetensiyasi tizimli fikrlash va hissiy intellektni, ta'sir qilish va muzokaralar olib borish ko'nikmalarini o'z ichiga olishi mumkin.

Media kompetentlik tushunchasining ildizlarini Dieter Baackening "Muloqot va kompetensiya" (1973/1980) dissertatsiyasida topish mumkin, unda kommunikativ kompetentsiya tushunchasi birinchi marta ishlab chiqilgan. Chomskiyning lingvistik kompetentsiya kontseptsiyasiga (1972) va Habermasning kommunikativ kompetentsiya nazariyasi loyihasiga (1971) murojaat qilib, Baacke kommunikativ kompetentsiyani "til va xulq-atvor kompetensiyasi" sifatida shakllantirdi. Shunday qilib, media kompetentsiya "muloqot va harakat repertuari uchun barcha turdagi ommaviy axborot vositalaridan faol ravishda foydalanish" qobiliyatini ifodalaydi

Mediakompetentlik - bu insonning turli shakllarda media matnlarini tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatishga tayyorligida namoyon bo'ladigan integral sifati, turlari, shakllari va janrlari, jamiyatdagi ommaviy axborot vositalari faoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilish.

G.V.Potemkinaning fikriga ko'ra pedagogning raqamli kompetensiyalari ta'limning raqamli didaktik imkoniyatlari va resurslaridan foydalanish imkonini ham beradi. Raqamli didaktikani rivojlanishi uchun didaktik loyixalar va birgalikdagi ta'lim olish va yangi bilimlarni o'zlashtirishni ko'zda tutadi [6].

Raqamli mediakompetentlik — bu shaxsning raqamli axborotlarni samarali va kritik (tahliliy) tarzda qidirish, baholash, yaratish va tarqatish qobiliyatidir. Bu kompetentlik, shuningdek, raqamli platformalarda muloqot qilish va xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar va mualliflik huquqlariga rioya qilishni o'z ichiga oladi.

Raqamli mediakompetentlikni rivojlantirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak:

1. Axborot izlash va baholash: Foydalanuvchilar turli manbalardan axborot topa olishlari va ularni ishonchliligini baholay olishlari kerak.

2. Axborot yaratish: Raqamli vositalar yordamida sifatli va original kontent yaratish qobiliyati.

3. Axborot tarqatish: Ma'lumotlarni to'g'ri va etik tarzda tarqatish.

4. Xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar: Internetda xavfsizlik va shaxsiy hayotni himoya qilish bo'yicha bilimlarni egallash.

5. Kritik fikrlash: Axborotni tahlil qilish va uning haqiqiyligini baholash qobiliyati.

Raqamli mediakompetentlik, ayniqsa, zamonaviy jamiyatda, ta'lim va ish sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyalari Yevropa modeli Digital Competenct of Educator (Dig Comp Edu) da kompetensiyalar ko'rsatilgan. Shulardan 6 ta yo'nalishda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish ko'rsatib o'tilgan. Ularni har birini qarab chiqamiz.

Birinchi yo'nalish - samarali kasbiy hamkorlik uchun - raqamli kasbiy ta'lim muhitini yaratish.

Ikkinchi yo'nalish - raqamli ta'lim resurslarini izlash, yaratish va hamkorlikda ishlash shartlarini shakllantirish.

Uchinchi yo'nalish - raqamli asboblarni jihozlarni qurollarni ta'lim samarali jarayonida qo'llash.

To'rtinchi yo'nalish - samarali baholash maqsadida raqamli usullardan foydalanish strategiyasi.

Beshinchi yo'nalish - raqamli usullar bilan o'rganuvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish.

Oltinchi yo'nalish - o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlanishini pedagog tomonidan nazorat qilish va kuzatish [7].

Elektron ta'lim muhitida raqamli media kompetensiyasining afzalliklari quyidagilarni tashkil qiladi:

Talabalarning faolligini oshirish: Elektron ta'lim muhitida raqamli mediakompetentlikning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligini oshirishdir. Onlayn kurslarga videolar, animatsiyalar va interaktiv simulyatsiyalar kabi multimedia elementlarini kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarni e'tiborini tortadigan va ularni o'quv

jarayoniga faol jalb etuvchi dinamik va interaktiv ta'lim tajribalarini yaratishi mumkin. Raqamli ommaviy axborot vositalari, shuningdek, turli xil o'rganish uslublari va afzalliklarini qondirishi mumkin, bu esa kontentni turli o'quvchilar guruhi uchun yanada qulayroq va qiziqarli qiladi.

Osonlashtirilgan shaxsiy ta'lim: Raqamli mediakompitentlik o'qituvchilarga o'quvchilarning qiziqishlari, o'rganish maqsadlari va afzalliklaridan kelib chiqqan holda o'rganish tajribasini shaxsiylashtirishga imkon beradi. Raqamli vositalar va resurslardan foydalanish orqali o'qituvchilar moslashtirilgan ta'lim yo'llarini yaratishi, maqsadli fikr-mulohazalarni taqdim etishi va har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatiga mos keladigan moslashuvchan ta'lim faoliyatini taklif qilishi mumkin. Elektron ta'limga ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv o'quvchilarga o'z bilimlarini egallashga, motivatsiyani saqlab qolishga va ta'limning yaxshi natijalariga erishishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish: Elektron ta'lim muhitida raqamli mediakompitentlik, shuningdek, talabalar o'rtasida tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi. Multimedia kontenti bilan shug'ullanish orqali talabalar bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga, raqamli resurslarning ishonchliligi va ishonchsizligini baholashga va bugungi raqamli asrda muhim bo'lgan media savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirishga da'vat etiladi. Bundan tashqari, raqamli media vositalari talabalarga o'z g'oyalari va bilimlarini ijodiy yo'llar bilan ifodalash imkonini beradi, masalan, raqamli kontentlar, multimedia taqdimotlari va hamkorlikdagi loyihalar orqali, ularning o'quv jarayonida innovatsiya va ijodkorlikni rag'batlantirish.

Onlayn aloqa va hamkorlik: Elektron ta'lim muhitida raqamli mediakompitentlikning yana bir afzalligi - bu talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi aloqa va hamkorlikni yaxshilashdir. Onlayn munozara forumlari, videokonferensaloqa platformalari va hamkorlikda tahrirlash vositalari kabi raqamli vositalar o'quvchilarga o'z tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilish, fikr almashish, guruh loyihalari ustida ishlash va geografik joylashuv yoki vaqt cheklovlaridan qat'iy nazar mazmunli muhokamalarda qatnashish imkonini beradi. Ushbu kengaytirilgan muloqot va hamkorlik onlayn ta'lim muhitida hamjamiyat va mansublik tuyg'usini kuchaytiradi, barcha ishtirokchilar uchun qo'llab-quvvatlovchi va interaktiv o'quv muhitini yaratadi.

Raqamli mediakompitentlik talabalarning faolligini oshirish, shaxsiylashtirilgan o'rganishni osonlashtirish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantirish orqali elektron ta'lim muhitini yaxshilashda muhim ro'l o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-ta-lim-muhitida-pedagoglarni-samarali-ishlashi-uchun-kompetensiyalarni-shakllantirish/viewer>
2. Mo'minova M.M. Globallashuv sharoitida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarini mediakompitentligini rivojlantirish. —Ilm-fan muammolari magistrlar talqinida mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallar to'plami 2-qism. Qo'qon 2023. 56-b
3. To'lqin Eshbek. Mediata'lim: yangi ta'lim usuli sifatida. <http://sharh.uz/munosabat/item/17008-mediata-lim-axborot-tv-radio-internet>
4. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma. - T.: «Extremum-press», 2015. -94 b.

5. Turdiyev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'qituvchi ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. -T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, 2015. 160-b

6. Потемкина Т.В. Зарубежный опыт разработки профиля цифровых компетенции учителя. Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. 2018. №2 с.25

7. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-ta-lim-muhitida-pedagoglarni-samarali-ishlashi-uchun-kompetensiyalarni-shakllantirish/viewer>

UO'K: 573.2

O'QITUVCHI PEDAGOGIK KOMPETENTLILIGINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

(Biologiya fani o'qituvchisi misolida)

<https://zenodo.org/records/14229441>

Abdurahmonova Mashxura Javdatovna

Muxsinboyev Odilbek Muxuddin o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Annatotsiya. *Ushbu maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda sifat nazoratini tashkil etish va bunda o'qituvchining asosiy vazifasi nimalardan iboratligi, shuningdek, ta'lim sifati va uni belgilovchi omillar hamda uni amalga oshirishda o'qituvchi-pedagoglarning asosiy vazifalari haqidagi fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik mahurat, biologik ta'lim, ta'lim sifati, psixologik muhit, virtual laboratoriya, boshqaruv mexanizmi.*

Аннотация. *В данной статье освещаются вопросы организации контроля качества в повышении эффективности образования и каковы основные задачи педагога в этом, а также качества образования и факторы, его определяющие, а также основные задачи педагогов-педагогов в его реализации.*

Ключевые слова: *педагогическое мастерство, профессиональное качество, биологическое образование, качество в образовании, психологическая среда, виртуальная и визуальная лаборатория, механизм управления.*

Abstract. *This article highlights the organization of quality control in improving educational efficiency and what is the main task of the student in this, as well as the quality of education and the determining factors and the main tasks of teacher-educators in its implementation*

Key words: *pedagogical seal, occupational quality, biological education, quality in education, psychological environment, virtual and visual laboratory, management mechanism.*

Tabiiy fanlar yo'nalishda ta'limni pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish xususida bir qancha izlanishlar olib borilgan. Sharqning buyuk allomalari Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Fargo'niy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulugobek kabi qomusiy olimlar o'z asarlarida maktab va madrasalarda insonni aqliy kamolotga yetkazishda o'qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanishga katta ahamiyat berganliklarini ta'kidlab o'tishgan.

Hozirgi ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi kontsepedagogik texnologiyasiyasi - noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining uslublarini qo'llashni taqazo etmoqda. Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi: Hamkorlikda o'rganish, modellashtirish, tadqiqot(loyiha) texnologiyalariga bo'linadi va u yaxlit uzviy tizim asosida olib boriladi. Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'zsiz, o'quv jarayoniga tizim sifatida yondashishdir. Noan'anaviy ta'lim berish usuli ta'limiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining asosi hisoblanadi. Usullar: ta'lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo'lgan ko'zlanayotgan natijalarga erishishni ta'minlaydi. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqda bo'lib, bir butunlikni, ya'ni pedagogik jarayon majmuini tashkil qiladi.

